



**O'ZBEKISTON TEXNIK JIHATDAN
TARTIBGA SOLISH AGENTLIGI
BOSH DIREKTORINING**

BUYRUG'I

**Yosh mutaxassislarni tanlash dasturini
qabul qilish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2022 yil 4 avgust kuni Davlat xizmatini isloq qilish va boshqaruvda natijadorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan yig'ilishning 61-son bayoni ijrosini amalga oshirish bo'yicha Agentlik nazorat rejasining 11-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida,

B U Y U R A M A N:

1. Yoshlar ishlari agentligi va Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi bilan birgalikda Yosh mutaxassislarni tanlashning namunaviy dasturini ishlab chiqganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan Yosh mutaxassislarni tanlash dasturi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tizim tashkilotlari rahbarlari Yosh mutaxassislarni tanlashning namunaviy dasturi asosida tashkilotlarida yosh mutaxassislarni tanlash bo'yicha dasturlarini 3 kun muddatda ishlab chiqib qabul qilsinlar.

4. Xo'jalik va devonxona ishlari sho'basi (Xudayberganov):

1 kunlik muddatda ushbu buyruq bilan markaziy apparatning barcha boshqarma va bo'lim boshliqlari, shuningdek Agentlik tizim tashkilotlari rahbarlari tanishtirilsin.



Bosh direktor

D.Sattarov

*Toshkent sh.,
2022 yil «14» oktabr*

57 - son